



IMOM TERMIZIYNING ILMY MEROSI

Mo'minova Mehriniso Habibjon qizi

“Jo'ybori Kalon” ayol-qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Imom at-Termiziy asarlarining hadis va islom tarixi ilmi jihatidan ochib berilgan. Shuningdek, muhaddis asarlarida ilgari surilgan hadislar va uning ilmiy tafakkurga ta'siri asoslab berilgan. Shu bilan birga, muhaddis asarlarining ilmiy dunyoqarashga ta'siri falsafiy jihatdan ochib berilgan.*

Аннотация: В данной статье произведения Имама ат-Тирмизи раскрываются с точки зрения хадисов и истории ислама. Также обоснованы хадисы, представленные в трудах муҳаддисов, и их влияние на научное мышление. В то же время философски раскрывается влияние работ Муҳаддиса на научное мировоззрение.

Abstract: *In this article, Imam al-Tirmidhi's works of hadith and Islamic history are revealed in terms of science. Also, the hadiths presented in the works of muhaddis and their influence on scientific thinking are justified. At the same time, the impact of Muhaddis's works on the scientific outlook is revealed philosophically.*

Kalit so'zlar: *Hadis, tadvin, marfu, siyrat, “shamoili muhammadiya”.*

Ключевые слова: *Хадис, Тадвин, Марфу, Сиурат, «Шамоили Мухаммадия».*

Mashhur ulamolardan bo'lgan buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziyning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhok as-Sullamiy at-Termiziy bo'lib, u hijriy hisobda 209 (milodiy 824) yilda Termizda, o'rta hol oilada tavallud topdi. Allomaning yoshlik chog'lari Termiz shahrida o'tib, dastlabki ta'limni o'z ona yurtidan olgan. Alloma bolalik chog'idanoq ilmga chanqoq bo'lib, yodlash qobiliyatining kuchliligi va noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan tahsil olgan.

Termiziy hadis ilmidagi ilmlarini oshirish maqsadida Sharq mamlakatlarining aksarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada shaharlarida yashagan.

Buyuk muhaddis At-Termiziy safar davomida uchraydigan qiyinchilik va xavf-xatarlarga qaramay, rasuli akram alayhi salomning hadislarini jamlashdek oliy maqsaddan o'g'ishmagani.

Imom Termiziy 15 yilga yaqin umrini safarda o'tkazgan.²⁸

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan,

«Al-jomi» («Ja'mlovchi»);

«Ash-shamoil an-nasaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlari»);

²⁸ O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY TADQIQOT MARKAZI "Imom Termiziy" 2023-yil, 4 bet

«Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi og“ishishlar»);
«Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»);
«At-tarix» («Tarix»);
«Kitob az-zuhd» («Taqvo haqida kitob»);
«Kitob ul-asmo va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob») kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

At-Termiziyning “Al-jomi” kitobi uning asarlari Ichida eng mashhuri bo’lib, mazkur asar, payg‘ambar alayhissalomga doir oltita ishonchli hadislar to‘plamlaridan biridir.

Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-jomi’ al-kabir» («Katta to‘plam»), «Al-jomi’ us-sahiyh» («Ishonchli to‘plam»), «Jomi’at-Termiziy» («Termiziy to‘plami»), «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomi bilan ham atalib, payg‘ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Abu Ali Mansur ibn Abdulloh Xolidiy aytganlar: “Imom Termiziy: “Men “Sunani Termiziy”ni yozib, uni Hijoz, Iroq, Xuroson olimlariga ko‘rsatdim. Barchalari bu kitobdan mammun bo‘ldilar va: “Kimning uyida shu kitobdan bo‘lsa, go‘yo uning uyida Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam gapirib turgandek bo‘ladilar”, – dedilar”, – deganlar”²⁹

Termiziyning yana bir yirik asari “Shamoil-un-nabaviya” bolib, bu asar ba’zi manbalarda “Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sollallohu alayhi vasallam”, “Ash-shamoilul Muhammadiya” nomlari bilan ham zikr qilingan. Mazkur asar Payg‘ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u zotning siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to‘rt yuzu sakkiz hadisi sharifni o‘ziga jamlagan qimmatli manbadir.

Ta’kidlab o’tish joizki, Payg‘ambar alayhissalomning fazilatlari, odatlari haqidagi hadislarni to‘plash bilan juda ko‘p olimlar, muhaddislar shug‘ullanganlar, lekin, Imom Termiziy “Shamoil-un-nabaviyya” asarida, imkonи boricha Payg‘ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarni muntazam ravishda to‘plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgani va o‘ziga xos mustaqil, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgani isломshunos olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilib keladi.

Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdurauful Munoviyul Misriyning (vafoti 1003-hijriy yili) “Sharhush-shamoil”, Ali ibn Sultonul Haraviy Qoriyning (vafoti 1192-hijriy yili) “Jam’ul-vasoil fi sharhi-shamoil”, Sulaymon ibn Umar ibn Mansurul Jumalning “Al-mavohibul Muhammadiyya bi sharhi-shamoil Imom Termiziyya” kabilarni keltirish mumkin. Bu asarning bir qo‘lyozmasi Qohiradagi Azhar kutubxonasida 144-hadis ilmi raqami ostida saqlanmoqda, Muhammad ibn Jasusul Molikiyning (vafoti 1182-hijriy yili) “Al-favoidul jaliylatul bahiyya ala ash-shamoilul Muhammadiyya (bu asar 1927-yilda nashr qilingan)

²⁹ Inoyatov A. Termiziy maqolasi. 2016. – B. 2. // www.minbar.uz

va nihoyat Azhar universitetining sobiq Shayxi Ibrohim Bojuriyning “Al-mavohibul laduniyya ala shamoil Imom Termiziyya” kabi sharhlarini ko‘rsatish mumkin.

Imom Termiziyning yana “Kitobut-tarix”, “Kitobul ilal as-sag‘ir va ilalul kabir”, “Kitobuz-zuhd” (Taqvo haqida kitob), “Kitobul asmo val kuna” (Roviy larning ismi va laqablari haqida kitob), “Al-ilal fil hadis” (Hadislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida), “Risola fil xilof val jadal” (Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola), “Asmous-sahoba” (Payg‘ambar sahabalarining ismlari) degan asarlari ham mavjud.³⁰

O‘z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziy ko‘plab mashur muaddis shogirdlarga ustozlik qilgan. Hadis ilmidagi uning shogirdlaridan Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud, Anbar, Hamad ibn Shokir, Abd ibn Muhammad an-Nasafyun, al-Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy va Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiylarni sanab o‘tish mumkin.

Ul zotning shogirdlaridan bo‘lgan Abu Sa’d Idrisiy ustozlarini sifatlab, yodlashlari, zehnlari to‘g‘risida, zarbulmasallar bitilganini aytadilar. Shogirdlaridan yana birlari: “Imom Buxoriy vafotlaridan keyin Xurosonda Abu Iso Imom Termiziydek ilmda, zehnda, taqvoda, zohidlikda biror kishi topilmas edi”, – deb aytadi. Imom Termiziy ko‘p yig‘laganidan hayotining oxirgi ikki yilida ko‘zlari ojiz bo‘lib qolganligi sababli ad-Dariyr taxallusi bilan ham atalgan.

Buyuk muhaddis imom at-Termiziy 279 hijriy (milodiy 892) yilda Termizdan uzoq bo‘lman Bug‘ qishlog‘ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Sherobod tumanidagi Abu Iso Termiziy maqbarasi obod qilingan bo‘lsa, 2017-yil 14-fevralda davlatimiz rahbarining Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qarori qabul qilindi.³¹

Mazkur qaror asosida Termiz shahrida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bino qilindi. Mazkur markazda, islom dini, jumladan, hadis ilmi, Abu Iso Termiziy hamda Termiziy allomalar merosi izchil tadqiq qilinadi. Diniy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanishga qaratilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, ommabop nashrlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlanadi.

Davlatimiz rahbari markazga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Buyuk muhaddis Imom Termiziy hayoti va asarlarini chuqur o‘rganish, yosh avlodga yetkazish, xalqimizga tushunarli tilda kitoblar chop etish bo‘yicha tavsiyalar berdi. Bu maskanda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun munosib sharoitlar yaratish, olimlarning xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirokini kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

³⁰ Kenjabek M. Sunani Termiziy. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 29.

³¹ <https://kun.uz/uz/82723093>



CANADA



CANADA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi IMOM BUXTORIY XALQARO ILMIY TADQIQOT MARKAZI "Ilmom Termiziy" 2023-yil
2. Inoyatov A. Termiziy maqolasi. 2016. – B. 2. // www.minbar.uz
3. Kenjabek M. Sunani Termiziy. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 29.
4. <https://kun.uz/uz/82723093>